O’zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish

agentligi direktori A.Burxanov

raisligida o’tkazilgan yig’ilish

2-SONLI BAYoNNOMASI

2024 yil 6 may **Toshkent shahri**

Raislik etuvchi: **A.Burxanov**

Agentlik direktori

Direktor o’rinbosarlari: D.Raximov, U.Tuxtasheva, U.Mavlyanov

Tarmoq rahbarlari: A.Ergashev, U.Berdiqulov, U.Dualanov, U.Abruev, A.Kamilov, D.Raxmatov, Z.Boysinov va boshqalar

Kotib: J.Beshimov

Kun tartibidagi masala:

I. “Ijro.gov.uz” tizimidagi hujjatlar hamda Agentlik oldida turgan boshqa topshiriqlarning ijro etilishi ahvoli hamda kelgusidagi vazifalar.

Yig’ilishni raislik etuvchi kirish so’zi bilan ochib, kun tartibidagi masala yuzasidan quyidagilarni ta’kidlab o’tdi.

“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida may oyiga muddati belgilangan 24 ta topshiriqni ijro muddatini kutmasdan bajarish, Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini kelishish jarayonlarini yakunlab, tegishli tartibda kiritish, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-240-son qarori ijrosi yuzasidan davlat organlari va tashkilotlari funktsiyalaridagi korruptsiya xavf-xatarlarini baholash ishlarini yakuniga yetkazish hamda Agentlik oldida turgan boshqa vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan ko’rsatmalar berildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan direktor o’rinbosarlari D.Raximov, U.Tuxtasheva va U.Mavlyanovlarning hamda tarkibiy tarmoq rahbarlarining hisobotlari hamda takliflari eshitilib, muhokama etildi.

Qayd qilinganlarga asosan yig’ilish:

QAROR QILADI:

1. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining o’rinbosarlari (D.Raximov, U.Tuxtasheva, U.Mavlyanov), Tizimli tahlil va prognozlashtirish yig’ma bo’limi, barcha tarkibiy tarmoq rahbarlariga:

1.1 “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida may oyida ijro muddati belgilangan 24 ta topshiriq bajarilishini ta’minlash bo’yicha kunlik nazorat o’rnatilsin.

1.2 Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar bo’yicha O’zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish to’g’risida Milliy ma’ruza loyihasi Oliy Majlis Palatalariga ko’rib chiqish uchun kiritilsin.

1.3 Korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning hududlarda ijrosini o’rganish bo’yicha Navoiy va Qashqadaryo viloyatlariga xizmat safarlari tashkil etilsin.

1.4 Korruptsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmalari faoliyati bo’yicha Agentlik rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida doimiy ravishda ma’lumotlar berib borilishi ta’minlansin.

1.6 Korruptsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashining 2024 yilda bo’lib o’tgan 12, 13 va 14-son yig’ilish bayonida belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan vazirlik va idoralardan ma’lumotlar olinib, umumlashgan tahliliy ma’lumot Milliy kengashga kiritilsin.

1.7 Toshkent shahrida “Global media forumi”ni o’tkazish bo’yicha kontseptsiya ishlab chiqilsin.

1.8 Agentlikka kelib tushayotgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonun talablari asosida ko’rib chiqish muddatlariga qat’iy amal qilinsin.

Raislik etuvchi A. Burxanov

Kotib J. Beshimov